

HIKOYADA RUHIYAT TASVIRI TALQINIDA PORTRET VA PEYZAJNING O'RNI

Sohiba Yangiboyeva, talaba

Ilmiy rahbar: Mohira Sadullayeva

Qoraqalpoq davlat universiteti, o'zbek filologiyasi fakulteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada obraz yaratish, xarakter tadriji, qahramon ruhiyati tasviri, portert va peyzaj yaratish mahorati kabi masalalar zamonaviy o'zbek adabiyotining yorqin vakili Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalari asosida tahlilga tortiladi

Kalit so'zlar: obraz, xarakter, hikoya, portert, peyzaj, nasr, talqin, tahlil, so'z, badiiyat, ruhiyat, mahorat, ijodkor mahorati.

Abstract: Annotation: In this article, issues such as creating an image, developing a character, portraying the psyche of a hero, the skills of creating portraits and landscapes are analyzed based on the stories of Zulfia Kuroloy, a bright representative of modern Uzbek literature.

Key words: image, character, story, portrait, landscape, prose, interpretation, analysis, word, artistry, spirit, skill, creative skill.

Аннотация: В данной статье анализируются такие вопросы, как создание образа, развитие характера, изображение психики героя, навыки создания портретов и пейзажей на основе рассказов Зулфии Куролбой, яркой представительницы современной узбекской литературы.

Ключевые слова: Ключевые слова: образ, персонаж, рассказ, портрет, пейзаж, проза, интерпретация, анализ, слово, артистизм, дух, мастерство, творческое мастерство.

Adabiy turlarning barchasiga tegishli mushtarak xususiyat, inson va atrof-muhit tasviri yetakchi vosita ekanligi, shu bilan birga asosiy mavzu-g'oyani bajarishga xizmat qilishi alohida qabarib ko'rinadi. "Adabiyotda har qanday yangilik, eng avvalo, uning qahramoni tabiatidagi o'zgarishdan boshlanadi. Yangi qahramon bu – badiiy-estetik fikr taraqqiyotida navbatdagi bosqich degani. Aniqrog'i, yangi qahramon badiiy jarayondagi sifat o'zgarishlarning ilk ko'rsatkichi, adabiy harakatdagi barcha tozarish va siljishlarning boshlang'ichidir"[3:168]. Inson o'y-kechinmalari, surati-yu siyratini aks ettirish birlamchi muammo hisoblanadi. Badiiy asarda inson tashqi qiyofasi, ruhiyat manzaralarini tasvirlashda portret muhim rol o'ynaydi, "Portretga yana qahramonning gap ohangi, o'ziga xos qiliqlari va turli ruhiy holatlar munosabati bilan yuzida bo'ladigan o'zgarishlar (mimika) ham kiradi"[4:115].

Taniqli adib Zulfiya Qurolboy qizi nasr yo'nalishida, ayniqsa hikoyachilik janrida sermahsul ijod qilayotgan yozuvchilardan biridir. Uning shu kungacha nashr qilgan

qator asarlarida davr ruhiyati manzarsi, qator muammo va voqealar go'zal talqini va realligi bilan ahamiyatga molik. Jumladan "Ayol", "Yolg'izlik qurboni", "Yozsiz yil" kabi qator hikoyalarida qahramonlarning ruhiyati va portreti jonli va haqqoniy tasvirlangan. Faqat bosh obrazlar emas, epizodik obrazlar portretini chizishga ham va bu orqali qahramonlar ruhiyati va xarakterini yanada aniqroq ochishga urungan. Ijodkor qahramonlarining quvonchli va baxtli damlaridan tortib, eng qayg'uli va umidsiz onlarigacha tasvirlashni juda maromiga yetkazib uddalagan.

"Ayol" hikoyasi ijodkor asarlari orasida badiiy g'oyasi kengligi, ayollarning nazokati va irodasini tarannum etishi bilan ajralib turadi. Ixcham hikoyasida o'zbek ayollariga xos xarakterni yaratishga harakat qilgan. Uning qahramonlarida milliylik, o'zbekona qadriyatlar aks etadi. Nazokat, Shavkat, do'xtir, hamshira obrazi to'laqonli ravishda asar mohiyatini ochishda, uni ideallashtirishda xizmat qilgan. Nazokat haqiqiy irodali, matonatli, sadoqatli ayol timsolidir. Kasalligi sabab shifoxonaga tushadi, dardi og'irligini, sanoqli kunlari qolganini biladi. Yozuvchi bu holatni shunday ta'riflaydi. "U juda ozib ketgandi. Qovoqlari ichiga botib, yonoq suyaklari turtib chiqqan, chekka tomirlari ko'm-ko'k bo'lib bo'rtib turardi". Ayol kasalligiga qaramay har doim o'ziga oro berib yuradi. Hamisha oilasi xotirasiga go'zal ayol, ona, rafiq bo'lib muhrlanishni istovchi va bu yo'lda barcha azob-u mashaqqatlarga tayyor bo'lgan ayol chizgilari, kechinmalari haqida so'z boradi. Og'riqlar ayolning sillasini quritadi, dard undan utunlikka chiqa boshlaydi, ammo nima qilib bo'lsa-da go'zalligini saqlashga tirishadi". Bu gal judayam qiyin bo'lsa kerak-a? Qattiq azob tortsam kerak. Qaysidir palatada bir ayol kechadan beri chinqirib yotibdi-yu, shunga o'xshab. Lekin buni qarang, qornim soat sayin kattalashib ketyapdi. Hademay do'mbiraday bo'lib qolsa kerak. Men bunday xunuk alfozda...—Nazokat yuzini devor tomonga burdi. Yostiq nam tortdi. Tog'day do'xtir birdan kichrayib qolgandek his etdi o'zini. Bilaman, oz qolganini bilaman. Lekin bunday xunuk alfozda o'lishni istamayman. Istamayman!..". Hikoyada yozuvchi ayol iztiroblarini tabiat bilan uyg'unlikda tasvirlaydi: "Quyosh yurishni sekinlatib kasalxona tepasiga kelganida bor shu'lasini derazasi ochiq xonaga tushirdi, shu'la shu lahza karavotda yotgan xushbichim va go'zal ayol yuzida jilva qildi, qovoqlarini qizartirmoqchi bo'ldi, lekin tosh qotgan qovoqlar qilt etmadi, shu'la o'ziga qadrdon qorachiqlarda akslanmoqni istadi, ammo, ularni topa olmadi".

Badiiy asarga xos bo'lgan hissiy-ekspressivlik, emotsionallik, estetik ta'sir asardagi aynan ruhiyat tasvirlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Adabiyotshunos A.Rasulov ta'kidlaganidek, "Psixologik belgilar portert tsvirida aniq ko'rinadi. Mohir san'atkor qahramonning portreti orqali uning qalbini chuqur aks ettiradi. Portert bilan xarakter yo'nalishi o'rtasida birlik bo'lishi, portert qahramon qalbini yoritishga xizmat qilishi lozim".

"Yolg'izlik qurboni" hikoyasidagi Tamara, Ulfat, Ditora, Abdukarim, Asadbek obrazlari orqali yozuvchi maqsadi aniq ifodalandi. Tamara obrazi hikoya markazda

turadi. Ayolning turlicha fe'l-atvori, muhit va jamiyat, farzandsizlik va boshqa omillar uning taqdiriga ta'siri chiroyli talqin qilingan. Hikoya davomida Tamara obraziga birdan o'tib ketilmaydi. Uning qiyofasi va xarakteridagi holatlarni syujet asosida, voqealar tadriji davomida ochilib boshlaydi: "Tamara xola erining o'limidan keyin avvallari to'tiqush saqlanadigan katalakday tor qafas bo'lib tuyuladigan, ayni zamonda hayhotday huvillab qolgan ikki xonalik uyda yolg'iz o'zi so'ppayib qoldi". Bunda ko'rinadiki, ayol uyini avval to'tiqush qafasiga mengzagan bo'lsa, erining o'limidan so'ng esa hayhotday huvillagan uyga o'xshatadi. Bu ham mahorat bilan ko'rsatib berilgan. Insonni yolg'izlik o'z domiga olar ekan, bu eng dahshatli qo'rqinchdir. Tamaraning buni quyidagicha ifodalaydi: "Keyin nima ham qilardi? Noiloj gazeta-kitob o'qiydi. Ko'p o'qiydi. Ammo erining o'limidan keyin mutolaani ham bas qildi. Qo'li ishga bormaydi, faqat o'y o'ylaydi. Sukunatga quloq tutadi. Ammo hech narsani ilg'ay olmaydi. Faqat jimlik, gung sukunat...". Tamara bora-bora bunday bir xillikdan zerikadi. Tamomila yolg'izlik, yarim soat gaplashishga biron tirik jon yo'qligi uni esdan og'dirgudek bo'ladi. Padvaldagi kalamushlarga gapirishga majbur bo'ladi: "Hoy noinsoflar, podvalda turvolib chiyillayvermasdan bu yoqqa chiqsalaringchi! Sal chalg'irmidim... Ko'pchilikmisizlar o'zi? Sasib yotgan padvalda yashab nima baraka topardilaring?"

Bu hikoyada o'zbeklarga xos urf-odatga sodiqlik, tortinchoqlik, mehmonlik izzat-hurmati kabi odatlar ham o'z aksini topgan."Tamara xolaning miyyasiga qon tepdi. Shartta o'rnidan turib, qaynsinglisining qo'lidan choynakni yulqib olgisi keldi. Biroq...Garchand jigarlari Tamara xolani qo'noq sifatida ko'rishmayotgan bo'lsalarda, birdan xolaning o'zi mehmon ekanligini eslab qoldi: "Mehmon esa izzatini bilishi kerak!". Xola tishini tishiga bosdi. Hikoyada nafaqat obrazlar talqini, balki tabiat hodisalari, ulardagi o'zgarishlar, sukunat, qorong'ulik kabi manzaralar ham mohirona tasvirlangan: "Quyosh ufq ortiga botishi bilan deraza ostida pusib turgan jodugarday ichkariga otilib kirib oladigan, atrof qorong'ulashgani sayin yuragini battaroq siqib, tars yorib yuboradiganday ezadigan, zalvorli qayg'u-hasratga qorishiq sukunatdan qochib qutulishning yoki uni alahsitishning sira-sira iloji yo'q edi". Tamara eri Ulfat bilan 40 yil juda inoq yashadi. Eridagi yumshoqlik, halimlik kabi xislatlarini juda qadrlardi. Ulfat akaning yaxshi inson, yaxshi er ekani hikoya davomida aniq ochib berilgan. Ular bir-biri uchun yaratilgan. Ularning munosabatlarini Tamara shunday tariflaydi: "Biz tarkibi bir xil bo'lgan mahsulotga o'xshaymiz. Faqat ikkita idishga solib qo'yilganmiz-da!"

Bundan xulosa qilish mumkinki, so'z san'atkori va kishi ruhining injeneri sifatida ruhning tub mohiyatiga chuqur kirib borish, inson ruhiyichki dunyosini aniq bir badiiy asarda teran ruhiy tahlil asosida jonli aks ettirish va, ayniqsa, asar qahramonlari timsolida ular mansub bo'lgan milliy ruhni yorqin bo'yoqlarda ko'rsatib berish oson ish emas. Iste'dodli adiba Zulfiya Qurolboy qizi buning uddasidan chiqa olgan, eng

asosiysi, adib kashf etgan har bir obraz kitobxonda xayrixohlik uyg'otadi va uni o'quvchiga yaqinlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Литературная энциклопедия терминов и понятий. Москва.НПК «Интелвак», 2001.-Ст.732.
2. Султон И. Адабиёт назарияси. Тошкент. Укитувчи, 2005. – Б.116.0-
3. Qosimov Y. She'r va dunyo. "Sharq yulduzi" jurnali. 1-son, 1989. 168-bet.
4. I.Sulton. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent.2005. B-115
5. Zulfiya Qurolboy qizi "Ayol" hikoyasi. "Yoshlik" jurnali. 2013.
6. Zulfiya Qurolboy qizi "Yolg'izlik qurboni" hikoyasi. Ziyoz.uz. 2013.